

Uzbek transcript:

Q: Yozgi ta'tilda nima qilyapsan?

A: Men yozgi ta'tilda oromgohga bordim.

Q: Xosh, nimalar qildingizlar u yerda? Senga yoqdimi oromgoh?

A: Ha.

Q: Nima qildizlar?

A: U yerda biz...biz jismoniy mashqlarni bajaramiz, tennis o'ynaymiz, koptok o'ynaymiz, futbol o'ynaymiz, kinoga boramiz, qo'g'irchoq teatriga boramiz, va yana suzishga ham boramiz.

Q: U yerda juda ko'p bolalar bor edimi?

A: Ha.

Q: Senga lager yoqdimi?

A: Ha.

Q: Tabiat darsini o'rganamiz deding maktabda, bir yilda nechta fasl bor ekan xo'sh?

A: Bir yilda to'rt ta fasl bor.

Q: Qaysilar?

A: Qish, yoz...qish, bahor, yoz, kuz.

Q: Sen qaysi faslni yoqtirasan?

A: Men bahor faslni.

Q: Bahor faslini.

A: Chunki u faslda hamma daraxtlar kurtak chiqaradi, tabiat jonlana boshlanadi. Bahorda gullar ochiladi. Hayvonlar uyqudan turishadi. Havo issiq boladi.

Q: Rus tili darsida nima qilasizlar?

A: Rus tili darsida she'r yodlaymiz, ruscha o'qiymiz.

Q: She'r yodlashni yoqtirasanmi?

A: Ha.

Q: Bizga biror ta she'r aytib berasanmi?

A: Mayli.

Tarixingdir ming asrlar ichra pinhon O'zbekim,
Senga tengdosh Pomuri Oqsoch Tyonshon O'zbekim,
Soy'lasin Afrosiyob, So'ylasin O'rxun xati,
Ko'hna tarix shodasida bitta marjon O'zbekim.

Q: Jismoniy tarbiya darsida futbol o'ynaymiz deb aytding, futbolni yoqtirasanmi?

A: Ha.

Q: O'yinlarni televizorda ham tomosha ham qilib turasanmi?

A: Ha,

Q: Qaysi komandalarni bilasan, futbol komandalarini?

A: Manchester Yunayted, Barselona, Roma, Real Madrid.

Q: Futbol o'yinchilaridan kimlarni bilasan?

A: Bekham, Ronaldinio, Kristiano Ronaldo, Ronaldo, Raul, Gonzales, Mirjalol Qosimov.

Q: Tushunarli. O'zbekistaonda qanday meva va sabzavotlar yetishtiriladi.

A: O'zbekistonda olma, anjir, anor, uzum...uzum, qovun-tarvuz, shaftoli, o'rik, gilos yetishtiriladi. Savzavotlardan, sabzi, piyoz, kartoshka, qovoq, baqlajon etishtiriladi.

Q: Sen qaysi mevani yoqtirasan?

A: Men nok, nokni yoqtiraman.

English translation:

K: What are you doing during the summer holidays?

A: I went to the camp for the summer holiday.

K: Well, what did you do there? Did you like the camp?

A: Yes.

K: What did you all do?

A: There we...we do [physical] exercises, play tennis, play with a ball, play football, go to the cinema, go to the puppet theater, and also we go swimming.

K: Were there a lot of children there?

A: Yes.

K: Did you like the camp?

A: Yes.

K: You said you study science [nature] class, well how many seasons are there in a year?

A: There are four seasons in a year.

K: What are they?

A: Winter, summer...winter, spring, summer, fall.

K: What season do you like?

A: I [like] spring.

K: Spring.

A: Because in this season the trees are in full bud, the nature revives. In spring the flowers blossom. The animals wake up. The weather gets hot.

K: What do you do in your Russian class?

A: We learn poems, read Russian in our Russian class.

K: Do you like learning poems?

A: Yes.

K: Will you recite a poem for us.

A: Okay.

[A patriotic poem]

My Uzbekistan, your history is hidden in the thousand of centuries, Old Tian Shan, Pamir are your contemporaries, Let Afrasiyab and old inscriptions tell about you, You are a pearl in the coral of history.

K: You said you played soccer in your physical education class, do you like soccer?

A: Yes.

K: Do you follow the games on TV?

A: Yes.

K: What teams do you know: soccer teams?

A: Manchester United, Barcelona, Roma, Real Madrid.

K: Whom do you know among soccer players?

A: Beckham, Ronaldinho, Cristiano Ronaldo, Raul, Gonzales, Mirjalol Qosimov.

K: I see. What fruits and vegetables are grown in Uzbekistan?

A: In Uzbekistan, apple, fig, pomegranate, grape...grape, melon, watermelon, apricot, cherry are grown. From the vegetables carrot, onion, potatoes, pumpkins, and eggplant are grown.

K: Which fruit do you like?

A: Pear, I like pears.

About CultureTalk: CultureTalk is produced by the Five College Center for the Study of World Languages and housed on the LangMedia Website. The project provides students of language and culture with samples of people talking about their lives in the languages they use everyday. The participants in CultureTalk interviews and discussions are of many different ages and walks of life. They are free to express themselves as they wish. The ideas and opinions presented here are those of the participants. Inclusion in CultureTalk does not represent endorsement of these ideas or opinions by the Five College Center for the Study of World Languages, Five Colleges, Incorporated, or any of its member institutions: Amherst College, Hampshire College, Mount Holyoke College, Smith College and the University of Massachusetts at Amherst.

